

## PAVLOVNIYA PLANTASIYALARIDA AGROTEXNIK TADBIRLARNI OLIB BORISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8138504>

**Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li**

*Muhammadmoydinabdurahmonov@gmail.com*

**Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li**

*nazirjonovi@mail.ru*

**Botiraliyev Lutfullo Abdug'affor o'g'li**

*lutfullo0330@gmail.com*

**Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li**

*xumoyunsu@gamil.com*

*O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon filiali ilmiy xodimlari*

### **Annotatsiya**

*Maqolada pavlovniya plantatsiyalarida ko'chatlarni parvarishlash qilishda ekilgan ko'chatlarga agrotehnik tadbirlar olib borish bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan. Bunda pavlovniya plantatsiyalarida yo'g'och mahsuloti olish uchun ko'chatlarni yetishtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Pavlovniya, plantatsiya, yog'och mahsuloti, ko'chat, qator orasi, agrotehnik talablar, o'rmon.*

### **Annotation**

*The article contains information on carrying out agrotechnical measures for planting seedlings when caring for seedlings in the Pavlovsk fields. Proposals have been developed for growing seedlings to obtain wood products on the Pavlovsk fields.*

### **Keywords**

*Paulownia, plantations, wood products, seedlings, row spacing, agrotechnical requirements, forest.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorida madaniy o'rmonzorlar tashkil qilish jumladan pavlovniya daraxtini o'stirish, ko'paytirish va uning xom-ashyosini tayyorlash sohasini rivojlantirish bo'yicha alohida chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda noyob va tez o'suvchi o'simliklar daraxtlarini yetishtirish va ularni ko'paytirish, sanoat uchun xom-ashyo bazasini shakllantirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar bajarilmoqda. Bugungi kunda ko'pchilik uchun yangilik bo'lgan pavlovniyadan yurtimizda dekorativ daraxt sifatida ko'chalar, dam olish maskanlari, xiyobonlar landshaft dizaynida foydalanib kelinmoqda. Ammo jahonda qimmatbaxo yog'och olish maqsadida ekiladigan pavlovniya daraxti nafaqat dekorativ ko'rinishi, balki qimmatli xususiyatlari bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadi.

Bugungi kunga kelib Respublikamizda o'rmon fondi yerlarida pavlovniya plantasiyalari yaratilmoqda yog'och mahsulotlari olish uchun pavlovniya nihollarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pavlovniya juda tez o'sgani bois, oralarini zich ekish yaramaydi aks holda, daraxt shoxlab ketgan vaqtida bir-biriga halaqit bera boshlaydi. Agar yog'och mahsuloti olish uchun ko'chatlar sxema bo'yicha ekilsa pavlovniya ko'chatlarini birinchi yilida yerdan 5-7 sm balandlikda kesib tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi, bunga asosiy sabab pavlovniya ko'chatlarini uzunligi 5-7 metrdan kam bo'lmagan uzun o'zak (asos) hosil qilish. Pavlovniya ko'chatlarini kesib tashlangandan so'ng qolgan ildiz qismidan 5-7 dona yangi nihollar o'sib chiqishi kuzatildi. Yangi nihollar 30-35 sm bo'lgunga qadar o'sib chiqqan nihollar ichidan bir dona baquvvat (lider) niholni qoldirilish zarur. Pavlovniya ko'chatlarini uzunligi 5-7 metrdan kam bo'lmagan uzun o'zak (asos) hosil qilish uchun barcha yon shoxlar olib tashlash tavsiya etiladi agar yon shohlari olib tashlanmasdan qoldirilsa, u holda Pavlovniya butaga aylanadi, undan daraxt hosil bo'lmaydi. Yon shoxlar bo'lmasligi tugunlarsiz tekis, sifatli yog'och hosil bo'lishiga kafolat beradi. Yon shohlarni olib tashlashda zarar yetmasligi kerak aks holda, poyada nuqsonlar xosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Tajribamiz natijasida 2 xil variantda sinovdan o'tkazdik.



a) b)

### **1 - rasm Pavlovniya ko'chatlarini yon shohlari olinmoqda**

1-variant yangi nihollarni o'z xolatida yon shohalarini olib tashlamasdan.

2-variant yangi nihollardagi barcha yon shohalarini olib tashlagan holat.

Dala tajribalari natijasida o'rmon xo'jaligi o'rmon fondi yerlarida ekilgan pavlovniya nihollarini (1-rasm) yon shohlari olib tashlash jarayonlari.

Tajribamiz natijasida 2 xil variantda may-iyul oylarida xar o'n kunda kuzatish ishlarini amalga oshirdik 1-jadvalda olib borgan kuzatishlarimizni ko'rishimiz mumkin. Olib borilgan tajribalar natijasda yog'och mahsulotlari olish uchun yetishtirilayotgan Pavlovniya nihollarini 2-variantdagi yon shohlarini olib tashlash tavsiya etiladi. Zarurat bo'lsa, yon shoxlarni 5-7 marttagacha olib tashlash kerak. Nihollar to'g'ri parvarish qilinsa 6-8 yilda 1 kubometrda 2 kubometr gacha maxaliy hunarmandchilikda ishlov berish uchun tayor yog'och olish mumkin. Bu ishni bajarish mobaynida ehtiyotkor bo'lish zarur, chunki qoldirilayotgan asosiy niholni mehanik shikastlanishidan saqlash juda muhimdur boyisi pavlovniya tarkibida suv miqdori ko'p bo'lganligi uchun mehanik zarar ko'rgan taqdirda tarkibidagi suv tashqariga chiqib yosh nihollar nobud bo'lishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

### **1-jadval**

№	Tajriba ntlari	Kuzatish kunlari						
		10.05	20.05	30.05	10.06.	20.06	30.06	10.07
1	1 variant	62	81	99	113	129	153	182
2	2 variant	63	96	125	167	195	269	348

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra agrotexnik tadbirlar amalga oshirilgan variantlarda o'simlik bo'yi 1-variantga nisbatan ikki barobarga o'sish kuzatilgan yani 63 sm dan 348 sm gacha o'sganligini kuzatish mumkin.

### **XULOSA**

Olib borilgan tajribalar natijasida pavlovniya ko'chatlari yon shohlarini 1 yil davomida 5-7 marttagacha olib tashlash tavsiya qilinadi buning uchu.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ 4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarori.

2. Z.T.Bo'stonov, M.Raximov, J.Xomidov //Pavlovniya - tez o'suvchi manzarali daraxt // Ekologiya xabarnomasi Toshkent, 2020. (2), - B. 36-38

3. I.A.Nazirjonov, A.M.Yulbasov, X.M.Sultonov //O'rmon ko'chatxonalarida yetishtirilayotgan pavlovniya ko'chatlarining parvarishlashga qo'yilgan talablar// «Fundamental va amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari: yutuqlar va innovatsion yechimlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanini Buxoro-2023 yil, 5-6 may.